

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 29 (1090), 2024-yil 9-fevral, juma



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



O‘ZBEKISTON – BELARUS: KO‘P QIRRALI SHERIKLIKKA ASOSLANGAN MUNOSABATLAR SIFAT JIHATIDAN YANGI BOSQICHGA KO‘TARILMOQDA

“Ko‘ksaroy” qarorgohida 8-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan mamlakatimizga kelgan Belarus Respublikasi Prezidenti

Aleksandr Lukashenkoni tantanali kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston va Belarus bayroqlari bilan bezatilgan maydonda oliy martabali mehmon sharafiga faxriy qorovul saf tordidi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Belarus yetakchisini samimiy kutib oldi va shohsupaga taklif qildi. Ikki mamlakat madhiyalari yangradi.

Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o‘tib, rasmiy delegatsiyalar a‘zolarini qutladilar.

Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko tor doirada hamda ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida muzokara o‘tkazdilar.

Davlatimiz rahbari uchrashuvni ochar ekan, keyingi yillarda O‘zbekiston va Belarus o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlar sifat jihatidan yangi, yanada yuqori bosqichga ko‘tarilganini alohida ta’kidladi.

Belarus Prezidentining ushbu tashrifiga tayyorgarlik doirasida qator tadbirlar, shu jumladan, Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi, hududlar, rektorlar,

tibbiyot xodimlari forumlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Hukumat rahbarlari, parlamentlar, vazirlik va hududlar darajasidagi faol aloqalarni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Tomonlar xalqaro tuzilmalar, shu jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH, SHHT doirasidagi siyosiy muloqot va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashni davom ettirishga ahdlashib oldilar.

Savdo-iqtisodiy hamkorlikning ijobiy sur‘ati mamnuniyat bilan qayd etildi. O‘tgan yil yakunlariga ko‘ra tovar ayirboshlash hajmi 15 foizga oshdi.

Hukumatlar oldiga ushbu ko‘rsatkichni yaqin yillarda 1 milliard dollardan ziyodga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Shu maqsadda qo‘shma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish, eksport-import yetkazib berishni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va mahsulotlarni sertifikatlashtirish elektron tizimini joriy qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Bundan tashqari, tomonlar yuk tashish uchun qulay sharoit yaratish, xalqaro avto-

mobilda tashuvchilarni tayyorlash, Janubiy Osiyoning katta bozorlariga eltuvchi multimodal koridorlardan samarali foydalanishga kelishib oldilar.

Kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi. Keyingi yillarda qo‘shma korxonalar soni 4 barobar ko‘paydi.

Muzokaralarda davlat rahbarlari kooperatsiyaning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berdilar. Bular — qishloq xo‘jaligi, yengil, oziq-ovqat va elektrotexnika sanoati, farmatsevtika, shaharsozlik, kommunikatsiyalar va boshqalar. Barcha yo‘nalishlar bo‘yicha alohida ishchi guruhlarini shakllantirishga kelishib olindi.

Yetakchilar hududlararo almashinuv faollashganini olqishladilar. Kuni kecha o‘tgan O‘zbekiston va Belarus hududlari ikkinchi forumining samarali natijalari alohida qayd etildi: uning yakunlari bo‘yicha qiymati 1 milliard dollardan ziyod shartnoma va bitimlar imzolangan.

Tomonlar faol madaniy-gumanitar almashinuvni davom ettirishga kelishib oldilar. Oliy va professional ta‘lim, sog‘liqni saqlash,

madaniyat, sport va turizm sohaslarida sheriklikni rivojlantirish dasturlari qabul qilindi.

Yig‘ilishda rasmiy delegatsiyalar a‘zolarining hisobotlari, muzokaralar kun tartibidagi masalalar yuzasidan aniq takliflari tinglandi.

Uchrashuvlar yakunida qabul qilingan qarorlar va imzolangan kelishuvlarni amalga oshirishga doir qo‘shma “yo‘l xaritasi”ni tayyorlash va qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Oliy darajadagi muzokaralardan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko Qo‘shma bayonot qabul qildilar.

Davlat rahbarlari huzurida qator muhim ikki tomonlama hujjat va bitimlarni imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi.

Shu jumladan:

— 2024-2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejas;

— Mahsulotlarni sertifikatlashtirish elektron tizimlarini qo‘llash to‘g‘risida bitim;

— Raqobatni rivojlantirish, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama bozorini tartibga solish sohaslarida hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Ilm-fan va ishlab chiqarishda hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— Toshkent va Minsk shaharlari o‘rtasida birodarlik munosabatlarini o‘rnatish va ko‘p qirrali hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida bitim;

— Energetika sohasida hamkorlik to‘g‘risida bayononna;

— Intellektual mulk sohasida hamkorlik to‘g‘risida bayononna;

— 2024-2025-yillarda sport sohasida hamkorlik dasturi;

— 2024-2025-yillarda madaniyat va san‘at sohasida hamkorlik dasturi;

— 2024-2025-yillarda maktabgacha ta‘lim muassasalarining pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasida hamkorlik dasturi;

— 2024-2025-yillarda ta‘lim sohasida hamkorlik bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

— 2024-2026-yillarda agrosanoat majmuida hamkorlik bo‘yicha “yo‘l xaritasi”;

— O‘simliklar karantini sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar rejas;

— 2024-2025-yillarda turizm sohasida hamkorlik bo‘yicha chora-tadbirlar rejas.

Bundan tashqari, tashrif doirasida 2024-yilda O‘zbekiston Respublikasi va Belarus Respublikasi hududlari delegatsiyalari o‘zaro tashriflari reja-jadvali imzolandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko muzokaralardan so‘ng ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

Tashrif arafasida o‘tkazilgan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig‘ilishi, Hududlararo forum va Ishbilarmonlar kengashi yig‘ilishi natijalari mamnuniyat bilan qayd etildi. Bungacha yetakchi oliygohlar rektorlari va tibbiyot muassasalari rahbarlari uchrashuvlari bo‘lib o‘tgan edi.

O‘zbekiston Prezidenti jumalistlar e‘tiborini keyingi yillarda O‘zbekiston — Belarus hamkorligida ro‘y bergan sifatli o‘zgarishlarga qaratdi. Barcha darajalardagi muloqotlar faollashgani, tovar ayirboshlash hajmi, kooperatsiya loyihalari soni oshgani, madaniy-gumanitar almashinuv va to‘g‘ridan-to‘g‘ri aviataqnovlar qayta tiklangani qayd etildi.

Yetakchilar muzokaralar atroficha bo‘lgani, O‘zbekiston — Belarus munosabatlarining keng doirasi batafsil muhokama qilingani, ko‘p qirrali sheriklikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, maqsad va vazifalari belgilab olinganini ma‘lum qildilar. Mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar — Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH, SHHT doirasidagi muloqotni mustahkamlashga tomonlarning intilishi qat‘iy ekani ta’kidlandi.

Tovar ayirboshlashni ko‘paytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Qo‘shma tashqi savdo kompaniyasini tashkil etish va savdoni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qilishga kelishib olindi.

Sanoat kooperatsiyasining ustuvor sohalari belgilab olindi.

Hududlararo aloqalar salohiyati va imkoniyatlarini samarali ishga solishga alohida e‘tibor qaratildi.

Madaniyat va san‘at, oliy va professional ta‘lim, turizm, yoshlar va sport sohalari-dagi faol almashinuvlar davom ettiriladi. Sog‘liqni saqlash borasidagi hamkorlikning aniq yo‘nalishlari belgilab olindi.

Tomonlar navbatdagi tibbiyot, ta‘lim va turizm forumlarini tashkil etishga kelishib oldilar.

Erishilgan kelishuvlar va imzolangan hujjatlar O‘zbekiston bilan Belarus o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilishi, ko‘p qirrali sheriklikni aniq

amaliy mazmun bilan boyitishiga ishonch bildirildi.

“Ko‘ksaroy” qarorgohida O‘zbekiston — Belarus sammiti yakunlangach, birgalikda daraxt ekish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Faxriy mehmonlar xiyobonida Prezidentlar Shavkat Mirziyoyev va Aleksandr Lukashenko mamlakatlarimiz hamda xalqlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik va sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlashga intilish ramzi sifatida daraxt ekdilar.

So‘ng Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Toshkent shahridagi Texnoparkka tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmon e‘tiboriga Texnopark korxonalarida ishlab chiqarilayotgan maishiy texnika, elektron hisoblagichlar, lift va eskalatorlar, nasoslar, sanoat qozonxonalari, sovitish tizimlari kabi keng turdagi yuqori texnologik mahsulotlar taqdim etildi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan tashkil etilgan sanoat majmuasida umumiy qiymati 365 million dollarlik 17 ta ishlab chiqarish quvvati joylashtirilgan. Joriy yilda bu yerda logistika markazi ish boshlaydi.

Mahsulotlar xorijiy brendlar ostida va ular nazoratida ishlab chiqarilmoqda, ichki va xorijiy bozorlarda ularga talab yuqori. Tovarlar dunyoning 10 ta mamlakatiga eksport qilinmoqda.

Prezidentlar yetakchi korxonalar kooperatsiyasini, tajriba almashish va texnologiyalar transferini kengaytirish zarurligini ta’kidladilar.

Shu kuni Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov hamrohligida “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga bordi. Oliy martabali mehmon muhtasham badiiy obida — Mustaqillik monumenti poyiga gul qo‘ydi.

Aleksandr Lukashenko ushbu muazzam bog‘ning bunyod etilish tarixi bilan tanishdi. Mustaqillik monumentida aks ettirilgan buyuk allomalar, qahramon sarkarda va jahongirlar, jaded bobolarimiz haqida so‘zlab berildi.

Delegatsiya a‘zolari “Yangi O‘zbekiston” majmuasining g‘oyaviy va me‘moriy yechimlariga e‘tibor qaratdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

IQTISODIYOT SOHALARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Jahon bozorida raqobatning tobora keskinlashuvi sharoitida mamlakat iqtisodiy taraqqiyotini ta‘minlashda ta‘lim sifati va ilmiy salohiyatni ko‘tarish orqali kadrlar tayyorlash tizimining samaradorligini yanada oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, iqtisodiyot va moliya sohasidagi oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish, ularda samarali boshqaruv tizimini yo‘lga qo‘yish, o‘quv jarayonlariga eng so‘nggi pedagogik texnologiyalarni joriy qilish, ilmiy faoliyatni jahon standartlari asosida tashkil etish, ularning xalqaro reytinglardagi o‘rmini yanada oshirish, ilg‘or xorijiy tajribaga ega ilmiy-pedagogik kadrlarni keng jalb qilish mamlakat iqtisodiyoti hamda moliya tizimlari uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi hisoblanadi.

Iqtisodiyot va moliya sohalari uchun yuqori malakali hamda xalqaro talablarga mos mutaxassislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, o‘quv hamda ilmiy jarayonlarni xalqaro standartlarga asoslanib innovatsion shakl va usullar asosida tashkil etish, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida:

1. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasining **Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini** unga Toshkent moliya instituti va Fiskal institutni (keyingi o‘rinlarda — Universitet) qo‘shib olish yo‘li bilan qayta tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

➤ Davomi 2-betda

9-fevral — Alisher Navoiy tavalludi kuni

UYG‘OQ FIKR



Ochiq chehrali odam ikkiyuzlamachilikdek nuqsondan yiroq bo‘ladi. Ochiq yuzidan xaloyiqqa xursandlik, chuchuk so‘zidan el-yurtga xurramlilik. Odamiylik bilan ko‘ngillarga sevimli, insoniylik bilan jonlarga yoqimli. Undan do‘st-dushman xotirjam. Bunday kishi umridan baraka topgay.

Alisher NAVOIY

“O‘qug‘anga muborak ayla oni...” ➤ 6

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
Q A R O R IIQTISODIYOT SOHALARI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH TIZIMINI
TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA

Boshlanishi 1-betda

2. Quyidagilar Universitetning asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib belgilansin:

iqtisodiyot, moliya va soliq sohalari bo‘yicha dunyodagi so‘nggi tendensiyalar, moliyaviy texnologiyalar, ilg‘or xorijiy tajriba va real iqtisodiyot talablarini hisobga olgan holda oliy ma‘lumotli kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

o‘quv jarayoniga xalqaro ta‘lim standartlarini joriy etish, ta‘lim va tadqiqot uyg‘unligini ta‘minlash orqali iqtisodiyot tarmoqlari uchun ilg‘or innovatsion ishlanmalar yaratish, talabalarda tizimli tahlil qilish, kreativ fikrlash va amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish;

zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalar va simulatsion markazlar tashkil etish orqali “ta‘lim — fan — innovatsiya — raqamlashtirish” ekotizimini va sohani rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-innovatsion tadqiqotlar transferini samarali yo‘lga qo‘yish;

iqtisodiyot, moliya va soliq sohalarini rivojlantirishning dolzarb yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy loyihalarni amalga oshirish, ularning natijalarini joriy etish yuzasidan ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqish;

jahon ta‘lim va ilmiy makonida Universitetning nufuzini oshirish, yetakchi xorijiy universitetlar bilan akademik va ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, professor-o‘qituvchilarning xorijiy ilmiy-amaliy stajirovkasini tizimli yo‘lga qo‘yish.

3. Belgilansinki:

a) Universitet iqtisodiyot, moliya va

soliq sohalari uchun oliy ma‘lumotli mutaxassislar va ilmiy kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish hamda metodik ta‘minot bo‘yicha yetakchi oliy ta‘lim muassasasi hisoblanadi;

b) Toshkent moliya instituti va Fiskal institutda tahsil olayotgan barcha talabalar o‘qishini Universitetda davom ettiradi hamda 2023/2024 o‘quv yilidan boshlab bitiruvchi kurs talabalariga belgilangan tartibda Universitet diplomi beriladi;

d) Universitetda 2024/2025-o‘quv yilidan boshlab:

ta‘lim jarayoni davlat tili, ingliz tili va boshqa xorijiy tillarda olib boriladi;

bakalavriat va magistratura bosqichiga o‘qishga qabul qilingan iqtidorli talabalar uchun alohida xorijiy tillarda o‘qitiladigan guruhlar tashkil etiladi;

ta‘lim dasturlari xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro‘yxatga kirgan xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlarining dasturi asosida bosqichma-bosqich ishlab chiqiladi;

ta‘lim jarayoniga yetakchi professor-o‘qituvchilar hamda tegishli sohalarda kamida 5 yillik amaliy tajribaga ega bo‘lgan iqtisodiyot, moliya va soliq tizimlarida ishlagan mutaxassislar jalb etiladi;

iqtisodiyot, moliya va soliq sohasi xodimlarining malakasini oshirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi;

e) Universitetga talabalarni o‘qishga qabul qilish 2024/2025-o‘quv yilidan boshlanadi. Bunda, davlat granti bo‘yicha o‘qishga qabul qilish davlat oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari doirasida belgilanadi;

f) Universitet:

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga idoraviy jihatdan bo‘ysunadi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo‘mitasi Universitet faoliyatini samarali tashkil etish, malaka talabalarini ishlab chiqish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, talabalarga amaliyot bazalarida sharoitlar yaratishda kadrlar buyurtmachisi sifatida ko‘maklashadi;

O‘zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blanklarga, mustaqil balansga hamda shaxsiy g‘azna hisobvaraqlariga ega bo‘ladi;

Toshkent moliya instituti va Fiskal institutning huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanadi.

4. Quyidagilar:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kuzatuv kengashining tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2024-2027-yillarda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida kadrlar tayyorlash tizimini samarali yo‘lga qo‘yish, ilmiy salohiyatni oshirish va moddiy-texnik bazani mustahkamlash bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq;

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul beriladigan obyektlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlasin.

5. Kuzatuv kengashi (Qo‘chqorov):

a) 2024-yil 1-aprelga qadar Universitetning boshqaruv kadrlari lavozimlariga yetakchi xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida ish tajribasiga ega bo‘lgan mutaxassislarni jalb qilish chorasini ko‘rsin;

b) 2024/2025 o‘quv yili boshlanguniga qadar tajribaga ega bo‘lgan loyihalashtirish tashkilotini jalb qilsin va Universitetning mavjud hududlari va bino-inshootlari negizida zamonaviy kampusni bunyod etish bo‘yicha master rejani ishlab chiqsin hamda unda quyidagilarni nazarda tutsin:

Universitetning Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Olmazor ko‘chasi, 183-uy manzillidagi hududida xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv auditoriyalari, kovorking markazlari, IT laboratoriya, biznes inkubator va anjumanlar zalini o‘z ichiga olgan multifunksional ko‘p qavatli binoni barpo etish;

Universitet kampusi va ulardagi bino-inshootlarni yuqori tezlikdagi internet bilan yagona tarmoqqa bog‘lash, o‘quv va ilmiy-tadqiqot jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish;

talabalar uchun qo‘shimcha qulaylik yaratish maqsadida ma‘nan va jismonan eskirgan binolar o‘rmda yangi talabalar turar joyi, zamonaviy sport zallari, oshxonalar va boshqa bino-inshootlarni qurish.

6. Universitetda mablag‘lari homiylik xayriyalari hisobidan shakllantiriladigan Universitetni rivojlantirish jamg‘armasi tashkil etilsin.

Belgilansinki, Universitetga tushgan to‘lov-kontrakt mablag‘larining saqlash va joriy xarajatlardan ortgan qismi Universitetni rivojlantirish jamg‘armasiga yo‘naltiriladi hamda ta‘lim jarayonini yaxshilash va moddiy-texnika bazasini rivojlantirish uchun Kuzatuv kengashining qaroriga muvofiq ishlatiladi.

7. Kuzatuv kengashi (Qo‘chqorov), Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Universitet faoliyatini takomillashtirish va ta‘lim sifatini oshirish maqsadida ikki oy muddatda xorijiy ekspertlarni jalb qilgan holda Universitet huzurida Transformatsiya markazini tashkil et-sin.

Transformatsiya markazi quyidagilar uchun mas‘ul etib belgilansin:

Universitetni 2030-yilga qadar xalqaro tan olingan tashkilotlarning oliy ta‘lim muassasalari reytingida birinchi 1000 talik ro‘yxatga kiritish, shuningdek, Universitet ta‘lim dasturlari xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazilishini ta‘minlash yuzasidan strategiyani ishlab chiqish;

xorijiy tajribaga muvofiq bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarini maqbullashtirish hamda Universitetning ta‘lim dasturlarini xalqaro ta‘lim dasturlariga muvofiqlashtirish;

2024-2025-yillarda xorijiy oliy ta‘lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kamida 200 nafar yetakchi professor-o‘qituvchilarning stajirovkasini tashkil etish;

Universitetning ta‘lim dasturlarini xorijiy oliy ta‘lim tashkilotlarining dasturlari asosida ishlab chiqish.

8. Belgilansinki, Universitet faoliyatini moliyalashtirish:

Davlat byudjeti mablag‘lari, to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan

mablag‘lar, xo‘jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmatlar ko‘rsatishdan tushadigan tushumlar, homiylik xayriyalari va grantlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi;

2024-yilda O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchi sifatida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratiladigan mablag‘lar doirasida amalga oshiriladi, 2025-yildan boshlab Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladi.

9. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ikki oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritisin.

10. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas‘ul va shaxsiy javobgar etib Bosh vazir o‘rinbosari — iqtisodiyot va moliya vaziri J.A.Qo‘chqorov hamda oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A. Sharipov belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.K.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 7-fevralMANFAATDORLIK HISSI
mo‘l hosil omili

da. Shunga bir oz xayolga berilibman. Zamonning to‘kinligini qarang. Un, non, g‘alla deysizmi, hamma narsa muhayyo, istagancha olasiz. Olimjonim shu kunlarni ko‘rmay ketdi-da.

Darhaqiqat, g‘alla yetishtirish, dehqonlar manfaatdorligini oshirish yo‘lida amalga oshirilayotgan hayotbaxsh islohotlar do‘konlar, aholi dasturxonini nonga to‘ldirdi, yurtga fayzu baraka kiritdi.

Rishton tumanida keyingi to‘rt yilda g‘alla yetishtirish hajmi qariyb 50 foiz oshdi. Bundan to‘rt-besh yil avval tumanda ko‘pi bilan 30 ming tonna don yetishtirilgan bo‘lsa, o‘tgan yili bu ko‘rsatkich 60 ming tonnadan oshdi. Hosildorlik o‘rtacha 80 sentnerga yetdi.

G‘allachilikda klaster tizimi yo‘lga qo‘yilgani yutuqlar omili. Ish haqi, mineral o‘g‘it, yoqilg‘i yetkazib berish, suvdan oqilona foydalanish bilan bog‘liq ish ko‘lami kengaydi. Kam xarajat qilib, ko‘p va sifatli hosil olish an‘analari qulochoy yoydi. Yangilangan sharoit va imkoniyatlar fermer xo‘jaliklarida ishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirdi, manfaatdorligini oshirdi.

Ayni kunda “Qahramon”, “Roshidon davroni”, “Shukur-Hikmat” g‘allachilik klasterlari sa‘y-harakati bilan 7500 gektar yerda mahalliy iqlim sharoitiga mos, serhosil g‘alla navlari parvarishlanyapti. Klasterlarning sarxil urug‘ jamg‘arish, donni qayta ishlash yo‘nalishida yangi loyihalarni ishga tushirish borasidagi izlanishlari ham to‘kinlik mahsulini.

“Qahramon” g‘allachilik klasteri bu sohada ko‘pga ibrat bo‘lmoqda. Klaster tashabbusi bilan nafaqat xomashyo, balki tayyor va yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarishga e‘tibor oshdi. “Birlashgan” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida Turkiya texnologiyasi asosida un ishlab chiqarish korxonasi ish boshladi. Korxona bir yilda 22 ming tonna donni qayta ishlash imkoniyatiga ega. Yangi loyiha 20 nafardan ortiq yoshlarni ish bilan ta‘minladi.

— Ilgari chekka qishloqlarda zamonaviy qayta ishlash korxonalari ishga tushadi, desa hech kim ishonmasdi, — deydi mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Murodjon Umarov. — Bugun bu haqiqatga aylandi. Eng muhimi, o‘zimiz yetishtirgan xom-ashyodan tayyor mahsulot ishlab chiqarilayapti.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Salima xola tandirdan uzilgan issiq nonni qo‘liga olib, ko‘zlariga surtdi, bir to‘g‘ram sindirib og‘ziga soldi. Hovlini yoqimli, muattar hid tutib ketgandek go‘yo. Naqadar totli, to‘yimli. Yetkazgani, ko‘rsatganiga shukronalar aytib, nabirasini yo‘qladi.

— Labbay, buviyon, chaqirdingizmi?

— Ha, mana buni issig‘ida Halima kampirga berib chiq, savob bo‘ladi, — deya qo‘liga tutqazdi.

Savatdagi kulchalarni olib tokchaga qo‘ydi. Hali zamon nabiralari kelsa, qo‘liga tutqazadi-da. Shu ishlar bilan andarmon bo‘lib xayol girdobiga cho‘mdi...

Hay-haylashiga qaramay, “Bugun don olib kelaman”, deya qop qo‘ltiqlab ko‘chaga otilgan to‘ng‘ichini esladi. Shunga ham chorak asr bo‘lib qolibdi. Erta so‘ngan yulduzi, bugungi to‘kin-sochinlikni ko‘rmay ketdi. O‘h! balog‘at yoshiga ham to‘lmanan edi. O‘h! sha kunlarni eslasa, yuragi zirqirab ketadi...

Bir etak bola bilan yolg‘iz qolgan mushfiq ona daladan beri kelmasdi. Oila jon boshiga do‘konda talonga berilgan ikki kilogramm un haftaga ham yetmaydi. Qo‘ldan berganga qush to‘ymas, deganlaridek, topgani qorinlaridan ortmay qoldi. Bu orada don o‘rim-yig‘imi boshlandi. G‘alla taqchil, aksariyat odamlar nazoratchilar ko‘zini shamg‘alat qilib, don olib qolishga harakat qilardi.

Olimjon ham g‘alla ilinjida yo‘l poylab

turibdi. Uzoqdan yuk ortilgan traktor ko‘rindi, katta yo‘lga chiqishdan oldin, albatta, to‘xtaydi. Bolakaylar uchun qulay fursat. Bir-ikki o‘rtog‘i bilan pritsep ustiga tirmashib chiqib, qoplarga don to‘ldirishdi. Traktor harakatini tezlatdi, Olimjon donga to‘lgan qoplamni pastga uloqtirdi-yu, o‘zi ham muvozanatini yo‘qotib yiqildi... Bolani shifoxona olib borishdi, ammo hayotini saqlab qolishning imkoni bo‘lmadi.

Salima xola xayol bilan bo‘lib, eshik ochib kirib kelgan hamsoyasini ham sezmay qoldi. — Assalomu alaykum, qo‘shni. Issiqqina non chiqarib, yo‘qlagan ekansiz, rahmat aytgani chiqaypman-da, o‘rgilay. Nega yig‘layapsiz, tinchlikmi?

— Issiq, bo‘rsilmoq noz-ne‘matlarni ko‘rib, Olimjonimni eslab qolibman-

Davlat dasturi loyihasi muhokamada

O‘ZBEKISTON — XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT

Ushbu tamoyil izchil davom etadi

O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat olib bormoqda. Zamonaviy tashqi siyosiy holatimiz dunyoda shiddat bilan o‘zgarayotgan vaziyat hamda mamlakat ichidagi keng ko‘lamli o‘zgarishlarga asoslanib shakllanmoqda. Mamlakatimizning tashqi siyosati xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga asoslanuvchi, do‘stona va tinchliksevar prinsipga ega.



Bahodir ISMOILOV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat
instituti sho‘ba mudiri

Shu bois, O‘zbekiston jahon siyosatining markazlaridan biriga va global tashabbuslar muallifiga aylanmoqda. Mamlakatimiz dunyoning 130 dan ortiq davlati bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan, 55 ta diplomatik va konsullik vakolatxonaci mavjud. 100 dan ortiq xalqaro tashkilotlar a‘zosi, turli ko‘p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o‘zaro sherikchilik aloqalarini rivojlantirmoqda. Bugungi davr mazkur siyosatni izchil davom ettirishni taqozo etadi.

2019-yilda Turkiy davlatlar tashkilotiga to‘laqonli a‘zo bo‘lib kirdik. Mamlakatimizning Afg‘onistondagi siyosati har doim pragmatizmi bilan ajralib turgan. Eron, Hindiston va Pokiston bilan esa bir qator muhim transport loyihalarini amalga oshirmoqdamiz. Markaziy Osiyo mamlakatlari, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Ozarbayjon va Pokistonnii Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT) birlashtirib turadi.

O‘tgan yili O‘zbekiston tashqi siyosatda Turkiy davlatlar, ayniqsa, Ozarbayjon, Yaqin Sharq (xususan, Qatar va Eron) vektorlarini ancha mustahkamlab oldi. Markaziy Osiyoning global maydonda avvalgidek parokanda emas, yaxlit mintqa bo‘lib harakat qilishga intilishi yaqqol ko‘zga tashlana boshladi. Mintaqa mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalari ancha kengaydi. Birgina 2022-2023-yillarda Markaziy Osiyo yo‘nalishida 150 dan ortiq oliy va yuqori darajadagi tadbirlar amalga oshirildi.

Natijada Markaziy Osiyo xalqlarining bir-biriga yaqinligi ta‘minlanmoqda, bordi-keldi aloqalari ko‘paydi, savdo-sotiq munosabatlarining salmog‘i ancha ortdi.

O‘zbekistonning izchil, konstruktiv va mutanosib siyosati tufayli mintqa davlatlari bilan ishonch va o‘zaro tushunish mustahkamlandi. Mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishning o‘ziga xos mexanizmi — mintqa davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari joriy etildi.

Shuningdek, xalqaro munosabatlarda MDH, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiy davlatlar tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi mintaqaviy tuzilmalarda O‘zbekiston tomonidan faol ishlar amalga oshirilmoqda. Koreya Respublikasi, Yaponiya kabi mamlakatlar bilan aloqalar izchil rivojlanmoqda. Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari mamlakatimiz tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

2023-yil 17-18-may kunlari XXRning Sian shahrida bo‘lib o‘tgan Markaziy Osiyo va Xitoy sammitida qabul qilingan Sian deklaratsiyasida mamlakatimiz va Markaziy Osiyo davlatlari ko‘targan g‘oyalar asosiy o‘rin tutadi. Bu xalqaro hamjamiyat tomonidan ham kuchli yondashuv sifatida qabul qilindi, O‘zbekiston tashqi siyosatidagi salmoqli nuqta bo‘ldi.

2023-yil sentabrda Markaziy Osiyo va AQSH sammiti ham yuqori darajada o‘tdi.

Prezidentimizning BMTdagi chiqishlari, Yevropa bilan hamkorlik, Janubiy Osiyo bilan munosabatlarda rivojlanish davomiyligi O‘zbekiston ko‘tarayotgan masalalar nafaqat Markaziy Osiyo, balki xalqaro hamjamiyatda ham muhim o‘ringa egaligini ko‘rsatayapti.

Tashqi siyosatda dasturiy g‘oyalar va davlatimiz rahbari ko‘targan tashabbuslar o‘z aksini topmoqda. O‘zbekiston tashqi siyosatda ilgari surayotgan takliflar mintaqamiz rivojlanishi uchun ham muhim hisoblanadi. Buni Prezidentimizning xorijiy davlatlarga rasmiy tashriflari misolida ko‘rsak bo‘ladi.

Uzoq yillar davomida qo‘shni davlatlar bilan bordi-keldi kamaydi, chegaralar yopildi. Keyingi yillarda vaziyat tubdan o‘zgardi.

Bugungi kunda yon qo‘shnilarimiz bilan ishonch va hurmatga, o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan pragmatik siyosat olib borilmoqda. Natijada savdo-sotiq, madaniy-ma‘rifiy aloqalar kundan-kun rivojlanmoqda. Eng muhimi, qardosh xalqlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, quda-andachilik, yaxshi qo‘shnichilik an‘analari qayta tiklandi.

Joriy yil 24-yanvarda Pekin shahrida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston — Xitoy muzokaralarida siyosiy muloqot mustahkamlanib borayotgani, mamlakatlarimiz muhim masalalar yuzasidan bir-birini qo‘llab-quvvatlayotgani alohida mamnuviyat bilan qayd etildi.

O‘tgan yil yakunlari bo‘yicha tovar ayirboshlash 14 milliard dollarga yetdi. Yaqin istiqbolda buni 20 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar borligi to‘g‘risida yakdil fikr bildirildi. Infratuzilma, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi va “yashil” energetikada, texnologiyalar transferi sohalarida hamkorlik dasturlarini tayyorlash va qabul qilishga kelishib olindi.

Yetakchilar hududlararo almashinuvlar faollashganiga alohida e’tibor qaratdi.

Keyingi yillarda Xitoydan O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi besh barobar, qo‘shma korxonalar soni uch barobar oshdi.

Ta‘lim va turizm sohasidagi hamkorlikni faollashtirish, o‘zaro madaniy kunlarini o‘tkazish amaliyotini davom ettirish zarurligi qayd etib o‘tiladi. Qo‘shma Yoshlar innovatsiya forumini o‘tkazish taklif qilindi.

Rejalashtirilgan barcha tadbirlar va ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida tomonlar Hukumatlararo qo‘mita va uning barcha kichik qo‘mitalari yig‘inlarini joriy yilning birinchi yarmida o‘tkazishga ahdlashib oldi.

Mamlakatimizning milliy manfaatlariga javob beradigan hamda yaqin va uzoq xorijiy davlatlar bilan aloqalarni kengaytirishga

qaratilgan faol, ochiq, pragmatik va chuqur o‘ylangan tashqi siyosiy yo‘nalishni rivojlantirish bo‘yicha muayyan natijalarga erishilmoqda.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risidagi Prezidentimiz farmoni loyihasiga ko‘ra, davlat dasturi 5 yo‘nalishdan iborat, 100 maqsadni o‘z ichiga oladi. Dasturning “Xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatini izchil davom ettirish” bloki alohida ahamiyatga ega.

Unga asosan, joriy yil davomida mintaqada xavfsizlikni va tinchliksevarlik g‘oyalarini izchil ta‘minlash maqsadida quyidagi ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Jumladan:

— an‘anaviy sheriklar bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish;

— global ishlab chiqarish va yetkazib berish zanjirlariga qo‘shilish, ayniqsa, AQSH, Kanada hamda Amerika qit‘asining boshqa mamlakatlari bilan keng qamrovli hamkorlik aloqalarini yanada chuqurlashtirish va har tomonlama kengaytirish;

— AQSH bilan strategik sheriklik muloqoti, Kanada va Braziliya bilan siyosiy maslahatlashuvlarni doimiy o‘tkazib borish;

— “S5+1” formati doirasidagi hamkorlikni, parlamentlararo hamkorlik aloqalarini kengaytirish;

— Yevropa Ittifoqi va unga a‘zo davlatlar bilan tashqi savdoni kengaytirish, xorijiy investitsiyalar, moliyaviy-texnik yordam va ilg‘or texnologiyalarni jalb etish.

Shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida suv xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan hamkorlikdagi ilmiy-amaliy loyihalarni yo‘lga qo‘yish, mintqa davlatlari tomonidan transcargaraviy daryolardan foydalanish

va gidroinshootlar barpo qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish hamda qo‘shni davlatlar bilan xalqaro grant mablag‘larni olish choralarini ko‘rish vazifalari ham shular jumlasiga kiradi.

Kezi kelganda eslatib o‘tish joizki, 2022-yil 6-iyul kuni Bryusselda O‘zbekiston va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitim (KSHTTB) imzolangan edi. Ushbu hujjat inson huquqlari sohasidagi hamkorlik, madaniy aloqalarni ilgari surish, moliyaviy va texnik hamkorlik, investitsiyalar, tovar va xizmatlar savdosi, shuningdek, intellektual mulkni himoya qilish borasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirishga qaratilgan bilan ahamiyatlidir.

KSHTTB loyihasi bo‘yicha muzokaralar 2019-yil fevral oyida boshlangan va 2022-yil iyun oyi oxirida yakunlangan. Ushbu davr mobaynida ekspertlar, bosh muzokarachilar hamda hukumat a‘zolari darajasida 10 raund muzokaralar va 150 dan ortiq uchrashuvlar bo‘lib o‘tgan.

Ushbu bitimning muhim yo‘nalishlari savdo va unga tegishli masalalar, jumladan, bojxona ma‘murchiligi, texnik jihatdan tartibga solish, sanitariya va fitosanitariya choralarini, raqobat va davlat korxonalarining faoliyati, davlat xaridari, nizolarni hal qilish va boshqa sohalar bilan bog‘liq qoidalaridan iboratligini inobatga olib, joriy yilda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitini yuksak darajada tashkil etish, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” vazirlar formatidagi navbatdagi uchrashuvda samarali ishtirokini ta‘minlash hamda O‘zbekistonning GSP+ imtiyozlar tizimi benefisiari maqomini uzaytirish masalasini ilgari surish nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, yangi bitim Jahon savdo tashkilotining asosiy qoidalarini o‘z ichiga olgani natijasida investitsiyaviy sheriklik, tovarlar, xizmatlar va intellektual mulk savdosi sohalaridagi munosabatlarni doirasi sezilarli darajada kengaytirilgan.

Mamlakatimizda “Islom — tinchlik va ergulik dini” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etish, O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishi bo‘yicha Ishchi guruhning navbatdagi yig‘inini o‘tkazish kabi bir qator tadbirlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

O‘zbekiston tashqi siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida hamkor davlatlar bilan ikki tomonlama o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor beradi.

O‘tgan yili mazkur yo‘nalishda 40 dan ortiq tadbirlar o‘tkazildi. Bu yil ham mazkur yo‘nalishni rivojlantirishga qaratilgan qator davlat tashriflari rejalashtirilgan. Jumladan, ayni kunlarda Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘lib turibdi.

Tashrif doirasida O‘zbekiston va Belarus hududlararo ikkinchi forumi o‘tkazildi. Tomonlar 2024-2025-yillarda o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi doirasida bir-birida savdo uylari tashkil etish, yig‘in va oziq-ovqat mahsulotlarini imtiyozli xarid qilish va tizimli yetkazib berish mexanizmini joriy etish, qishloq xo‘jaligi, sog‘liqni saqlash va ta‘lim sohalarida hamkorlikni rivojlantirish masalalarini muhokama qildi.

Shubhasiz, tashqi siyosatimiz doirasida olib borilayotgan bu kabi sa‘y-harakatlar chet ellik investorlarni O‘zbekistonga jalb qilish, ularni ishtirokida turli biznes-forumlarni, ko‘rgazmalar va boshqa tadbirlar tashkil etish, mamlakatimizning ta‘lim, ilm-fan, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarida aloqalarini kengaytirish, xususan, universitetlararo va ilmiy tadqiqotlar yo‘nalishi bo‘yicha turli dasturlarda ishtirok etish hamda qo‘shma loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Munosabat

Keyingi yillarda Xalq deputatlari mahalliy kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini ijtimoiy himoya qilish, nazorat funksiyalarini kengaytirish va boshqa masalalardagi faolligi oshdi, ish usuli takomillashdi. Bugungi kengashlar faoliyatini, deputatlarning tashabbuskorligini bundan 10-15 yil avvalgi holat bilan taqqoslab bo‘lmaydi.



Rahmatilla SHERALIYEV,
Xalq deputatlari Toshkent viloyati
kengashi deputati,
O‘zbekiston Respublikasida xizmat
ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi

HOKIMLAR ENDI KENGASHGA HISOB BERADI

Hozir ham shunday–ku, deysizmi?

Hozir hokim bir vaqtning o‘zida kengash raisi ham hisoblanadi. Tabiiyki, kengash qabul qilgan qarorlarning saviyasi, mazmun va mohiyati ko‘p jihatdan raisga bog‘liq. Kengash raisi esa ayni vaqtda hokim ekanini unutmaydi va qaror qabul qilishda o‘zi bilib-bilmay ijro hokimiyati manfaatlariga yon bosishi mumkin.

va vazifalarga to‘laqonli javob beryaptimi? “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarga hamohang faoliyat yuritayptimi? Bu savollarga javob berishda bir oz o‘ng‘aysizlik paydo bo‘ladi.

Prezidentimizning shu yil 2-fevralda qabul qilingan “Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni bilan tanishib, uni o‘z vaqtida qabul qilingan tarixiy hujjat, mahalliy kengashlar dasturilamali, deb baholash

mumkin. Mazkur farmon, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro organlari vakolatlari bo‘linishiga oid muhim tamoyilning mahalliy darajasidagi ijrosini ta‘minlaydi. Shu ma‘noda, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini “Kuchli kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyili asosida tashkil etish yuzasidan qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ma‘qullanganini ham alohida e’tirof etish lozim.

Hozir hokim bir vaqtning o‘zida kengash raisi ham hisoblanadi. Tabiiyki, kengash qabul qilgan qarorlarning saviyasi, mazmun va mohiyati ko‘p jihatdan raisga bog‘liq. Kengash raisi esa ayni vaqtda hokim ekanini unutmaydi va qaror qabul qilishda o‘zi bilib-bilmay ijro hokimiyati manfaatlariga yon bosishi mumkin.

Ikkinchidan, kengash sessiyasida rais o‘zi hokim sifatida hisobot bermoqda. Albatta, bunday jarayonda ro‘y-rostlik, ochiq tanqid, kamchiliklarga murosasizlik bir oz orqaga chekingandek bo‘ladi. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, bu yil o‘tkaziladigan saylov yakunlari bo‘yicha dastlab viloyatlar va Toshkent shahri kengashlarida, 2026-yildan e’tiboran tuman (shahar) kengashlarida kengash raislari va hokimlar alohida-alohida faoliyat yuritishi belgilangani ayni muddaodir.

Farmon bilan mahalliy kengashlar zimmasiga vazifa va funksiyalar faqatgina qonun hujjatlari bilan yuklanishi, davlat hokimiyati va boshqaruv

organlari tomonidan mahalliy kengashlar faoliyatiga aralashishga yo‘l qo‘ymaslik belgilab qo‘yildi. Normativ huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda vazifalarni mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari va ijro etuvchi hokimiyat organlari o‘rtasida aniq belgilash amaliyoti joriy etilmoqda.

Bularning barchasi mamlakatimizda yuritilayotgan oqilonra siyosatning yorqin ko‘rinishidir. Farmon bu kabi va boshqa ko‘plab masalalarni xalqchil nuqtayi nazaridan hal etishga asos yaratayotgani bilan ham ahamiyatlidir.


O‘z navbatida, farmon bilan mahalliy kengashlar hamda ijro hokimiyati oldiga yangi vazifalar qo‘yilmoqda. Ularni o‘rganish, amaliyotga joriy etish, tabiiyki, mahalliy kengashlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Mahalliy kengashlarning xalq ovozigacha aylanishi, hududiy boshqaruvni aholi manfaatlariga xizmat qilish tamoyili asosida yo‘lga qo‘yish deputatlarni o‘ta faol bo‘lishga, daxldorlik tuyg‘usini oshirishga, kamchiliklarga murosasiz bo‘lishga, nazoratni kuchaytirishga undaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, mazkur hujjat mahalliy kengashlar faoliyatida zamon talablariga mos yangi davrni, yangi rivojlanish bosqichini boshlab berishi bilan o‘ta ahamiyatli va dolzarbdir.



Iqtisodiyotimizdagi ustuvor yo‘nalishlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida o‘z ifodasini topgan. Shundan kelib chiqib, o‘tgan yili bajarilgan ishlar samarasi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jumladan, dastlabki baholashlarga ko‘ra, 2023-yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YIM) hajmi joriy narxlarda 1 kvadrillion 66,6 trillion so‘mni tashkil etib, oldingi yildagiga nisbatan 6 foiz oshdi. Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida 4, sanoatda 6, qurilishda 6,4, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 10,2, tashish, saqlash, axborot hamda aloqa xizmatlarida 12,3 va boshqa xizmat tarmoqlarida 4,5 foiz o‘shish kuzatildi.

2023-yilda iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi ulushi 24,3, sanoat 26,1, qurilish 6,2, xizmatlar sohasi hisssasi 43,4 foizni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YIM o‘shishiga hisssasi 2,6, sanoat 1,5, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 1, qurilish sohasi ulushi 0,4 foizga teng bo‘ldi. Shuningdek, 2023-yilda YIMning shakllanishida Toshkent shahri 17,1 foiz ulush bilan eng katta hissa qo‘shdi. Toshkent, Navoiy viloyatlari 10,1 va 7,7 foiz ko‘rsatkich bilan keyingi o‘rinlarni egaladi. Sirdaryo viloyati (2 foiz), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (3,1 foiz) hamda Jizzax viloyati (3,1 foiz) eng past natija ko‘rsatgan. O‘tgan yili aholi jon boshiga YIM hajmi joriy narxlarda 29,3 million so‘mni tashkil etgan va 2022-yildagiga nisbatan 3,8 foiz o‘sgan.



SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

2023-yilga oid dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, yurtimizda faoliyat yuritayotgan 69,4 mingdan ziyod sanoat korxonasi tomonidan 655,8 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan hajmi 6 foiz oshdi. Jumladan, eng yuqori ulush 84,4 foiz bilan qayta ishlash sanoatiga to‘g‘ri keldi. Tog‘-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati ulushi 8,4, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sanoati ulushi 6,7, suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish sanoati hisssasi 0,5 foizni tashkil etdi. Qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajmi o‘tgan yildagiga nisbatan 6,7 foiz hamda elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sanoatida 9,7 foiz oshishi kuzatildi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2022-yildagidan 6,2, to‘qimachilik mahsulotlari 6,4 foiz ko‘paydi. Hududlar kesimida yuqori o‘shish sur‘atlari Jizzax (7,4 foiz), Andijon (7,3 foiz), Namangan (7,2 foiz), Sirdaryo (7,1 foiz), Qashqadaryo (7,1 foiz), Navoiy (6,7 foiz) hamda Farg‘ona (6,2 foiz) viloyatlarida kuzatildi. Ijobiy o‘shish sur‘atlariga erishishda 2023-yilda yangi tashkil etilgan 14,1 mingdan ortiq sanoat korxonasining o‘mi katta. Xususan, to‘qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning har birida 3,3 mingtadan, mebel, kimyo sanoatida mos ravishda 0,9 va 0,5 mingga yangi subyektlar ish boshladi. 2023-yilda o‘zlashtirilgan jami investitsiyalarning qariyb yarmi, ya’ni 53,3 foizi aynan sanoat sohasini rivojlantirish va modernizatsiya qilishga yo‘naltirildi. Bu esa import o‘rmini bosuvchi hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga hamda qo‘shimcha ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qilyapti. O‘tgan yilda sanoat tarmoqlariga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 140 trillion so‘mga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya hajmi esa 68,6 trillion so‘mga yetdi. 2023-yilda eksport hajmi 24,4 milliard dollarga teng bo‘lib, avvalgi yildagidan 23,8 foiz o‘tdi. To‘qimachilik mahsulotlari eksporti hajmi 3 milliard dollarni, oziq-ovqat mahsulotlari

eksporti hajmi 1,8 milliard dollarni, mashina va transport asbob-uskunalar 1,3 milliard dollarni tashkil etdi.

QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI TARMOG‘I

Agrar sohani qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy manfaatdorligini oshirish bo‘yicha tizimli tadbirlar natijasida dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, yil yakuni bo‘yicha qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining umumiy hajmi 426,3 trillion so‘mni tashkil etib, 2022-yildagidan 4,1 foiz oshdi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 3,1 foizi dehqon va tomorqa

xo‘jaliklari hamda 29,8 foizi fermer xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. 2023-yilda jami 8,4 million tonna (o‘tgan yildagiga nisbatan 105,5 foiz) don va dukkakli don ekinlari, 3,6 million tonna (103,8 foiz) kartoshka, 11,5 million tonna (103,5 foiz) sabzavot, 2,5 million tonna (105,5 foiz) poliz hamda 3,1 million tonna (104,1 foiz) meva yetishtirildi. O‘tgan yilda tirik vaznda jami go‘shl ishlab chiqarish hajmi 2,8 million tonnani (2022-yilda

O‘zbekiston Respublikasida sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari bo‘yicha ishlab chiqarish hajmlari

T/r	Tarmoq nomi	2022-yil		2023-yil (dastlabki ma’lumot)	
		hajm, mlrd.so‘m	o‘shish sur‘ati %	hajm, mlrd.so‘m	o‘shish sur‘ati %
1.	Jami sanoat	553 265	105,3	655 821,9	106
2.	Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlab chiqarish	52 093,5	101,9	55 240,5	101
3.	Ishlab chiqarish sanoati	460 491,8	105,4	553 333,4	106,7
4.	Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash	37 653,6	113,5	44 247,7	109,7
5.	Suv ta’minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	3026,1	94,7	3000,3	101

giga nisbatan 103,9 foiz), sut 12 million tonnani (102,9 foiz), tuxum 8487,5 million donani (104,4 foiz) hamda baliq yetishtirish 198,9 ming tonnani (107,3 foiz) tashkil etdi. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish ko‘rsatkichlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlili ko‘rsatdiki, tirik vazndagi go‘shning umumiy hajmida 84,9, sutning 92,8 hamda tuxumning 57,9 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi. 2024-yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar umumiy bosh soni 14,1 millionni (2023-yilning mos davriga nisbatan 288,9 ming bosh ko‘p), shundan sigir 5 million (89,8 ming bosh ko‘p), qo‘y va echki 24,1 million

(515,8 ming bosh ko‘p) va parranda 103 million boshni (5,7 million bosh ko‘p) tashkil etdi. Yirik shoxli qoramolning 90, sigirning 90, qo‘y va echkining 77,5 hamda parrandaning 48,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida parvarishlanmoqda.

XIZMATLAR SOHASI

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 470,3 trillion so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 13,7 foiz ko‘p bo‘ldi. Xizmatlar umumiy hajmi o‘shishiga moliyaviy xizmatlar 20,6, savdo 10,2, aloqa va axborotlashtirish 24,6, ta’lim sohasidagi xizmatlar 22,8 foiz o‘shishi ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Moliya sektori yangi mahsulot va xizmatlarni joriy etish hamda texnologiyalarga sarmoya kiritish hisobiga jadal rivojlanmoqda. 2023-yilda uning hajmi 106,4 trillion so‘mga yetib, o‘tgan yildagiga nisbatan o‘shish sur‘ati 120,6 foizni tashkil etdi va jami ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmidagi ulushi 22,6 foizga teng bo‘ldi. Moliyaviy xizmatlar hajmi oshishiga bank tizimi barqarorligini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash kengayishi, valyuta siyosatini liberallashtirish o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Transport xizmatlari hajmi 108,5 trillion so‘mga yetib, o‘tgan yildagiga nisbatan o‘shish sur‘ati 108 foiz bo‘ldi. Ushbu xizmat turining jami ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmidagi ulushi 23,1 foizni tashkil etdi. Ularning o‘shishiga temir yo‘l transportida ko‘rsatilgan xizmatlar katta ta’sir ko‘rsatdi — 112,4 foiz. Shu bilan birga, omborga joylashtirish va yordamchi transport xizmatlarining 14,9 foiz o‘shishi ta’minlandi. Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari jadal o‘shishi kuzatilmoqda. Masalan, 2019-yilda bu o‘shish 108,3 foiz bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 124,6 foizga yetdi. Ular hajmi 32,2 trillion so‘mni tashkil etdi. 2023-yilda savdo xizmatlari hajmi 110,7 trillion so‘m, 2022-yildagiga nisbatan o‘shish sur‘ati 110,2 foiz bo‘ldi. Ushbu turdagi xizmatlar yalpi qo‘shilgan qiymatining o‘shishi avtomobil hamda mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta’minlash xizmatlarining 29,4 foiz o‘shishi hisobiga ta’minlandi. Ta’lim sohasida xizmatlar hajmi 20,4 trillion so‘mni tashkil etib, avvalgi yildagiga qaraganda o‘shish sur‘ati 122,8 foizga yetdi. Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari, xususan, xorijiy oliy ta’lim muassasalarining mavjud va yangi filiallarida yangi fakultetlar ochilishi,

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR

2023-yil yurtimizda jami 352,1 trillion so‘m asosiy kapitalga investitsiya o‘zlashtirilib, 2022-yildagidan 122,1 foiz o‘tdi. Mazkur yuqori o‘shish markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan ta’minlandi. Ular jami investitsiyalarning 87,3 foizini qamrab oldi yoki 307,3 trillion so‘m investitsiya o‘zlashtirilib, 2022-yildagidan 26,2 foiz ko‘paydi. Markazlashmagan moliyalashtirish man-


2023-yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra ko‘rsatilgan bozor xizmatlari

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da
Xizmatlar – jami	470 286,5	113,7
shundan asosiy turlari bo‘yicha:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	32 226,6	124,6
moliyaviy xizmatlar	106 363,8	120,6
transport xizmatlari	108 477,7	108
yashash va ovqatlanish xizmatlari	18 327,3	112,6
savdo xizmatlari	110 662,4	110,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	12 064,3	113,3
ta’lim sohasidagi xizmatlar	20 418,4	122,8
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	8441,2	111,6
ijara xizmatlari	7542,6	105,2
kompyuter ta’minlash xizmatlari	7021,5	106,6
shaxsiy xizmatlar	10 916	106,3
me’morlik sohasidagi xizmatlar	7959,7	100,2
boshqa xizmatlar	19 865	120,6

balari to‘g‘risida gap ketganda, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va kafolatlanmagan xorijiy investitsiya hamda kreditlar hisobidan o‘zlashtirilayotgan sarmoyalarning o‘mi kattaligini alohida ta’kidlab o‘tish zarur. Bu investitsiyalar 166,7 trillion so‘mni yoki jami investitsiyalarning 47,4 foizini hamda 2022-yildagiga nisbatan o‘shish sur‘ati 156,2 foizni tashkil etdi. Xitoydan kirib kelgan investitsiyalarning o‘zlashtirilishi eng yuqori ulushga ega bo‘ldi. Ushbu mamlakat investitsiyalarining o‘zlashtirilishi jami o‘zlashtirilgan xorijiy investitsiyalarning 25,6 foizi yoki 48,1 trillion so‘mdir. Shuningdek, Rossiya investitsiyalari o‘zlashtirilishi 25,2 trillion so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 13,4 foizini, Turkiya investitsiyalari o‘zlashtirilishi 12 trillion so‘m yoki jami o‘zlashtirilgan investitsiyalarning 6,4 foizini tashkil etdi.

QURILISH ISHLARI HAJMI

Qurilish sohasi iqtisodiyotning barcha boshqa tarmoqlari uchun asosiy fondlarni yaratish va modernizatsiya qilishda ishtirok etadi. Shuning uchun u fond yaratuvchi asosiy tarmoq bo‘lib turibdi. 2023-yilda mamlakatimizda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 149,9 trillion so‘mni tashkil etib, 2022-yildagidan 6,4 foiz ko‘paydi. Iqtisodiy faoliyat turlari jihatidan bino va inshoot qurilishi bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar yetakchilik qildi. Ya’ni jami bajarilgan qurilish ishlarining 70,1 foizi ular ulushiga to‘g‘ri keldi.




Fuqarolik obyektlari qurilishining hisssasi 20,6 foizni yoki 31 trillion so‘mni, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 9,3 foizni yoki 13,9 trillion so‘mni tashkil qildi. 2024-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, qurilish korxona va tashkilotlari soni 34 ming 749 tani tashkil qilib, soha tomonidan yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 6,2 foiz bo‘ldi. O‘tgan yili umumiy maydoni 14,1 million metr kvadratga teng turar joy qurilib, foydalanishga topshirildi. Ular 63 ming xonadonga mo‘ljallangan bo‘lib, aholining uyga talabini qondirishga xizmat qiladi.

2023-yil yanvar-dekabr oylari yakuniga ko‘ra ko‘rsatilgan bozor xizmatlari

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da
Xizmatlar – jami	470 286,5	113,7
shundan asosiy turlari bo‘yicha:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	32 226,6	124,6
moliyaviy xizmatlar	106 363,8	120,6
transport xizmatlari	108 477,7	108
yashash va ovqatlanish xizmatlari	18 327,3	112,6
savdo xizmatlari	110 662,4	110,2
ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	12 064,3	113,3
ta’lim sohasidagi xizmatlar	20 418,4	122,8
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	8441,2	111,6
ijara xizmatlari	7542,6	105,2
kompyuter ta’minlash xizmatlari	7021,5	106,6
shaxsiy xizmatlar	10 916	106,3
me’morlik sohasidagi xizmatlar	7959,7	100,2
boshqa xizmatlar	19 865	120,6

Turar joylarning 64,6 foizi qishloq joylarda qurildi. Jami 107,4 ming o‘ringa mo‘ljallangan maktablar hamda 27,6 ming o‘ringa mo‘ljallangan maktabgacha ta’lim tash-

O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo aylanmasi (mlrd. dollar)



kilotlari, qariyb 2,8 ming yotoqqa mo‘ljallangan shifoxonalar va 5 mingdan ortiq qatnovga mo‘ljallangan poliklinikalar foydalanishga topshirildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI

Mamlakatimizda mahalliy eksport qiluvchi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, importni optimalashtirish, umuman, tashqi savdo muvozanatini ta’minlash maqsadida imtiyoz va afzalliklarning kompleks tizimida yaratildi. Buning natijasida jahon bozorlaridagi konyukturaning sezilarli o‘zgarishlariga qaramay, keyingi besh yil ichida tashqi savdo aylanmasi 1,5 barobar o‘tdi.

Eksportchi korxonalarga, birinchi navbatda, kichik biznes subyektlariga mahsulotlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish, ularni tashqi bozorlarga olib chiqishga ko‘maklashish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan tuzilmalar tashkil etildi. O‘tgan yili O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 62,6 milliard dollarga yetdi va 2022-yildagidan 12,1 milliard dollar yoki 23,9 foiz oshdi. Tashqi savdo aylanmasida eksport hajmi 24,4 milliard dollarga (23,8 foiz oshdi) va import hajmi 38,2 milliard dollarga (24 foiz ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida 13,7 milliard dollar qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi. Mamlakatimiz jahonning 198 mamlakati bilan savdo aloqalariga ega. Tashqi savdo aylanmasining nisbatan salmoqli hisssasi Xitoy (21,9 foiz), Rossiya (15,8 foiz), Qozog‘iston (7 foiz), Turkiya (5 foiz) va Koreya Respublikasi (3,7 foiz) hissasiga to‘g‘ri keldi. Keyingi yillarda Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘tgan besh yil ichida tashqi savdo aylanmasi Turkmaniston bilan ikki karra, Tojikiston bilan 1,6, Qozog‘iston bilan 1,3 va Qirg‘iziston bilan 1,2 barobar z ziyodga oshdi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada liberallashtirish, eksportni ko‘paytirishni rag‘batlantirish, mahalliy eksportchi tashkilotlarning raqobatdoshligini va moliyaviy barqarorligini oshirish, ortiqcha va eskirgan ruxsat berish tartibdolarini bekor qilish orqali ishbi-larmonlik muhitini takomillashtirish maqsadida va amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportchilar soni 7,3 mingga yetdi va ular tomonidan 16,2 milliard dollar (nomonetar oltindan tashqari) qiymatidagi (o‘shish 4,5 foiz) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi. 2023-yilda tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (13,5 foiz), Xitoy (10,1 foiz), Qozog‘iston (5,6 foiz), Turkiya (5,1 foiz), Afg‘oniston (3,5 foiz) va Qirg‘iz Respublikasi (2,6 foiz) kabilar bo‘lgan. Ularning umumiy eksportimizdagi ulushi 40,4 foizni tashkil etdi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 78,8 foizga yetib, unda sanoat tovarlari (16,6 foiz), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,3 foiz), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (5,4 foiz), mashinalar va transport asbob-uskunalar (5,3 foiz) asosiy o‘rin tutadi. Asosiy eksport mahsulotlari orasida to‘qimachilik yetakchilik qilmoqda. Xususan, 2023-yil yakuni bo‘yicha 3,1 milliard dollarlik to‘qimachilik mahsulotlari eksport qilinib, umumiy eksportning 12,5 foizini tashkil etdi va so‘nggi besh yillikda qariyb 2 barobar oshdi. 2023-yilda 1,2 milliard dollar qiymatidagi yoki 1,8 million tonna meva-sabzavot eksport qilinib, 2022-yildagidan 3,3 foiz ko‘paydi yoki 18,9 ming tonna oshdi. Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya (37 foiz), Pokiston (16,7 foiz), Xitoy (12,3 foiz) hamda Qozog‘iston (10,3 foiz) bo‘lib turibdi. 2023-yilda import hajmi 38,2 milliard dollarni va 2022-yildagiga nisbatan 24 foiz o‘shishni tashkil etdi. Import qilingan tovarlar hajmi 7,4 milliard dollarga ko‘paydi va 35,6 milliard dollarga yetdi. Xizmatlar importi esa 2,6 milliard dollarni qayd etdi va 2022-yildagiga nisbatan 1,6 foiz kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va asbob-uskunalar (39,2 foiz), sanoat tovarlari (16,6 foiz) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (12,8 foiz) hisobiga to‘g‘ri keldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi Axborot xizmati



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

“YOSHLAR” VA “BIZNES” so‘zlari nega yonma-yon?



Nurisлом TO‘XLIYEV,
iqtisodiyot fanlari doktori,
akademik

Mustaqil davlatchilimiz tarixida yoshlar bilan bog‘liq yil nomlanishiga bir necha marta guvoh bo‘ldik. Zero, yoshlar jamiyat shakllanishi va rivojlanishida doimo muhim rol o‘ynab kelgan. Shuning uchun ham ularning mamlakatimiz hayoti, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi faol ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish dolzarb ahamiyatga ega. 2024-yilning “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e‘lon qilingani o‘g‘il-qizlarimizning jamiyatdagi o‘rni beqiyosligini e‘tirof etish bo‘yicha tarixiy an‘ananing davomidir.

Rasmiy statistikaga ko‘ra, 14-30 yosh oralig‘idagi aholi yoshlar qatlami sanaladi. Ular mamlakatimiz aholisining 26,8 foizini tashkil etmoqda. Bu davr inson hayotida eng mas‘uliyatli palla: mustaqil hayotga kirib boradi, o‘ziga munosib kasb va ta‘lim turini tanlaydi, o‘qiydi, ish faoliyatini boshlaydi. Turmush qurish davri ham, asosan, shu davrga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekistonda nikohdan o‘tayotgan erkaklarning o‘rtacha yoshi 27, ayollarniki esa 22,2 yoshni tashkil etadi. Tibbiyot tili bilan aytganda, fertillik yoki reproduktivlik, ya‘ni sog‘lom avlod nuqtayi nazaridan ham bu qatlamning ahamiyati katta. Mamlakatimizda yoshlar siyosatining davlat darajasiga ko‘tarilgani ma‘nosi ham shunda.

Yoshlar innovatsiyalar, texnologik va iqtisodiy taraqqiyotning dvigatellari. Ularni tadbirkorlik, ta‘lim va malaka oshirishda qo‘llab-quvvatlash biznes va umuman, iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi. 2024-yil yoshlar o‘rtasida tadbirkorlik faolligini rag‘batlantirish, kichik va o‘rta biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish borasida muhim qadam bo‘lishi tabiiy. Shu bois, yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlashning birlashishi jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi, iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishi, innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratishi mumkin. Demak, joriy yilning nomlanishida — “yoshlar” va “biznes” so‘zlarning yonma-yon qo‘llanishida alohida ma‘no bor. Bu, avvalo, yurtimizda yosh tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, biznesini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan sa‘y-harakatlar bilan bog‘liq.

Mamlakatimizda yoshlarning 210 ta tadbirkorlik va sanoat zonasi tashkil etildi. Ularni ish bilan ta‘minlash uchun katta mablag‘ sarflab, platforma yaratilmoqda. Buning bir necha sabablari bor.

Birinchidan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga ko‘maklashish yangi ish

o‘rinlari yaratishga zamin hozirlaydi, mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishini rag‘batlantiradi. Farzandlarimizga o‘z g‘oyalarni ro‘yobga chiqarish, biznes loyihalarini yo‘lga qo‘yish va muvaffaqiyatli ishbilarmon bo‘lishga yordam beradi.

Ikkinchidan, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashkil etish ham ichki, ham xorijiy sarmoyani jalb etish imkonini beradi. Sarmoyadorlarni bunday zonalarda o‘z ishlab chiqarishi va biznesini joylashtirish imkoniyati qiziqtirishi mumkin. Bu esa hududning iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini yangi texnologiyalarni joriy etish, innovatsion mahsulot va xizmatlarni rivojlantirish platformasiga aylanishi mumkin. Ayni paytda mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi.

To‘rtinchidan, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarining rivojlanishi yoshlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratishga, bu esa, o‘z navbatida, ishsizlik darajasini pasaytirish, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash va aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Binobarin, O‘zbekistonda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini tashkil etish tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, innovatsiyalarni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va umumiy iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega.

MILLAT GENOFONDI — XALQ BOYLIGI

Mamlakatimizda aholi soni har yili qariyb bir millionga ko‘paymoqda. Mehnat bozoriga 500 ming yigit-qiz kirib kelayotganini nazarda tutadigan bo‘lsak, yangi ish o‘rinlari yaratish va yoshlarni ish bilan ta‘minlashga katta ehtiyoj borligi anglashiladi. Bu tendensiya O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Yoshlar har qanday davlatning kelajagi, ularning iqtisodiyotdagi faol ishtiroki o‘shis va farovonlikka



xizmat qiladi. Biroq ular uchun ish o‘rni yetarli bo‘lmasa, ishsizlik, past daromad, hayot sifatining yomonlashishi va hatto migratsiyaning kuchayishi kabi ijtimoiy va iqtisodiy muammolar kelib chiqishi hech gap emas. Mamlakatimiz keskin demografik vaziyatga ega davlatlar qatoriga kiradi.

Aholi soni o‘sishi yoshlarning ta‘lim olish va ish bilan ta‘minlash imkoniyatlariga ham ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, resurslar, infratuzilma, sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimlariga bosim o‘tkazishi va iqtisodiy vaziyatni yomonlashtirishi mumkin.

Shu bois, hukumat va biznes sektori yoshlar tadbirkorligi uchun muhit yaratish, ta‘lim va malaka oshirish imkoniyatini ta‘minlash, innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni rag‘batlantirishga e‘tibor qaratishi muhim. Yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash va ish o‘rinlari yaratish O‘zbekistonda ichil

iqtisodiy o‘shis va ijtimoiy barqarorlikka hissa qo‘shishi aniq. Ammo davlat o‘z fuqarolariga bir umr “enaga” bo‘lishi shart emas. Yoshlar ta‘lim davomida innovatsion bilimlar bilan qurollanib, G‘arbda singari o‘ziga o‘zi ish o‘rni yaratish tamoyilini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Kremniy (Silikon) vodiysidagi Stenford universiteti talabalari Xyuvlett va Pakkard 1939-yili hamyonidagi 538 dollar bilan tashlandiq binoda “garaj biznesi”ni boshlagan. Ularning sa‘y-harakati asta-sekinlik bilan personal kompyuter va printer ishlab chiqaruvchi, 170 mamlakatdagi filialida ikki yuz mingdan ortiq ishchi o‘rniga ega yirik kompaniya vujudga kelishiga asos bo‘ldi. Hozir ham bu transmilliy IT kompaniyada 58 ming kishi mehnat qiladi. Jahonga mashhur IT kompaniyalarining ko‘pi faoliyatini xuddi shunday boshlagan.

Mamlakatimizda yangi ish o‘rinlari yaratish uchun tadbirkorlik subyektlariga katta imkoniyat, imtiyoz va yengilliklar berilyapti. Bu ishlar muayyan darajada o‘z samarasini ko‘rsatyapti, biroq mehnat kuchi migratsiyasiga barham berish mushkulligicha qolmoqda. Hozir migratsiya yoshlar uchun yangi tajriba, malaka, ta‘lim va yaxshi mehnat sharoitiga egalik imkoniyati bo‘lishi mumkin. Biroq migratsiyaning salbiy tomoni ham bor. Masalan, qishloqda yashovchi ko‘plab yoshlar o‘z oilasini tashlab ketmoqda. Bu esa jamiyat parchalanishi, oilaviy qadriyatlar izdan chiqishi xavfini ham tug‘diradi. Bundan tashqari, migratsiya yuqori malakali kadrlarni yo‘qotishga olib keladi. Ushbu holat mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoli mavjud.

Shunday ekan, yoshlarning o‘z yurtida ish topishi, kamolga yetishi uchun sharoit yaratish muhim. Bunga yangi korxonalarni qo‘llab-quvvatlash, ish o‘rinlari yaratish, ta‘lim va kadrlar tayyorlash imkoniyatini kengaytirish, xususi investitsiyalar va innovatsion rivojlanish uchun infratuzilmani takomillashtirish orqali erishiladi. Tashqi migratsiyani qisqartirish, yoshlar bandligini



ta‘minlash barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning muhim omilidir.

SAMARALI DAROMAD MANBAI

Hozir yoshlarning ish bilan mashg‘ulligini ta‘minlash uchun IT xizmatlari, innovatsion g‘oyalarni eksportiga katta e‘tibor berilyapti. O‘zbekistonda yoshlar bandligini ta‘minlashda xizmatlar va innovatsion g‘oyalarni eksport qilish juda foydalidir bo‘lishi mumkin. Ayni vaqtda jahon iqtisodiyoti ham xizmatlar va innovatsiyalarga tobora ko‘proq e‘tibor qaratmoqda. Bu esa mamlakat eksport sektorini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Axborot texnologiyalari, dizayn, marketing, turizm va boshqa sohalarida bilim va ko‘nikmalarga ega yoshlar jahon bozorida



TARAQQIYOT YO‘LI

muvaffaqiyatli raqobatga kirishadi, o‘zi va boshqalar uchun ish o‘rinlari yarata oladi.

Xizmatlarni muvaffaqiyatli eksport qilishning bir yo‘nalishi O‘zbekistonda IT sohasining rivojlanishidir. Mamlakatda raqamli iqtisodiyot faol o‘tib bormoqda, IT kompaniyalari uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda, innovatsion mahsulot va xizmatlar rivojlanishi rag‘batlantirilmoqda. Bu investitsiyalarni jalb etish, yangi ish o‘rinlari yaratish va mamlakatimizning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilayotir. Shu ma‘noda, xizmatlar va innovatsion g‘oyalarni eksporti to‘g‘ri rivojlanish strategiyasi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va innovatsiyalar uchun qulay iqtisodiy muhit yaratilsa, yoshlar bandligini ta‘minlashning samarali usuli bo‘lib xizmat qiladi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 400 ming yoshning bandligini ta‘minlash va muammolarini hal etishga erishish hamda yoshlar ishsizligi darajasini 14 foizdan 11 foizga kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish, jabhada xizmatlar eksportini oshirishga alohida e‘tibor qaratilgan. Buning uchun IT yo‘nalishida 300 ming yoshni ish bilan ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Maktab o‘quvchilari xalqaro IT bozorida talab yuqori bo‘lgan zamonaviy kasblarga o‘rgatilishi hamda “Bir million dasturchi” loyihasini kengaytirish va har yili eng iqtidorli 15 ming yoshni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash tizimi yo‘lga qo‘yilishi yuzasidan amaliy choralar belgilandi.

Aholi umumiy sonida yoshlar ulushining oshishi ish o‘rinlari yaratish, ularga mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobatlashish uchun zarur ko‘nikma va bilimlar berishni taqozo etadi. Shu ma‘noda, keyingi yillarda “inson kapitali” tushunchasiga zo‘r berib talqin va targ‘ib qilinayotgan zaminida katta mazmun muajssam. Inson kapitali odamlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga erishish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan bilimi, ko‘nikmasi, tajribasi, malaka va qobiliyati yig‘indisidir. So‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida bilim iqtisodiyotiga o‘tishga qaratilgan o‘zgarishlar tufayli inson kapitali tushunchasi, ayniqsa, dolzarb bo‘lib qoldi.

INSON KAPITALI NEGA BIRLAMCHI?

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasining “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni

yaratish” deb nomlangan birinchi yo‘nalishida qilinadigan ishlar ta‘lim islohotlaridan boshlangan. Inson salohiyatini ro‘yobga chiqarishni inson kapitalini boyitish deb tushunadigan bo‘lsak, bunda ta‘limning o‘rni va ahamiyati katta ekanini anglash qiyin emas. Har bir insonning salohiyatini rivojlantirish va ro‘yobga chiqarishda ta‘lim asosiy o‘rin tutadi. Ta‘lim orqali odamlar jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muvaffaqiyatli ishtirok etish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma, malaka va tajribaga ega bo‘ladi.

Ta‘lim innovatsiyalar, iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikning asosiy resursi bo‘lgan sifati inson kapitalini shakllantirishga yordam beradi. Insonlarning intellektual va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularga o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, kasbiy muvaffaqiyatlarga erishish, hayotning turli sohalariga qimmatli hissa qo‘shish imkonini taqdim etadi.

Har bir insonning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib shart-sharoit yaratish maqsadida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida ta‘lim tizimini isloh qilish ishlarini boshlash mantiqiy qadamdir. Tizimni izchil takomillashtirish, sifati ta‘lim, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash — bularning barchasi inson kapitalini rivojlantirish, mamlakatimizning jabhada raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Bugun inson kapitaliga katta e‘tibor qaratilayotganining jiddiy sabablari bor. Globallashuv va raqobat, texnologiyalarning jadal rivojlanishi, demografik o‘zgarishlarni ham mazkur sabablar sirasiga kiritish mumkin. Jahon iqtisodiyotida mamlakatlar investitsiya, texnologiya va bozor uchun raqobatlashishga majbur. Bu o‘rinda asosiy resurs raqobatbardoshlik va innovatsion rivojlanishni ta‘minlay oladigan inson kapitalidir. Zamonaviy texnologiyalar ishchilardan yuqori malaka va bilim talab qiladi. Investorlar va kompaniyalar o‘z ishlab chiqarish hamda biznesini joylashtirish uchun inson kapitali yuqori bo‘lgan mamlakatlarga tobora ko‘proq e‘tibor qaratmoqda.

Inson kapitali iqtisodiy o‘shis, innovatsiyalar, barqaror rivojlanish va aholi turmush darajasini oshirishning asosiy omilidir. Bu kapital ta‘lim, sog‘liqni saqlash, fan va texnologiya sohalarida investitsiya resurslaridan samarali foydalana oladigan va jamiyat uchun qo‘shilgan qiymat yaratishga qodir yuqori malakali ishchi kuchi bo‘lib qaytadi. Binobarin, inson kapitalining mamlakat taraqqiyotidagi ahamiyati haqiqatan juda muhim va davlat, biznes hamda butun jamiyat tomonidan jiddiy e‘tibor talab qiladi.

CHE‘T EL TAJRIBASI ASQOTADI

Xitoy va Hindiston dunyoda aholisi eng ko‘p mamlakatlar bo‘lishiga qaramay, bir necha asosiy omillar tufayli yoshlarni ish bilan ta‘minlash muammosini muvaffaqiyatli hal qildi. Mazkur davlatlar sanoat tarmoqlarini faol rivojlantirdi. Bu esa, o‘z navbatida, yoshlar uchun millionlab ish o‘rinlari yaratilishiga hissa qo‘shdi. Ishsizlik darajasini pasaytirish, aholi bandligini ta‘minlash imkonini berdi.

Shuningdek, ushbu davlatlar yoshlarga zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish imkonini beruvchi ta‘lim va o‘qitishga katta mablag‘ sarfladi. Bu ishchi kuchining kasbiy mahorati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qildi. Kichik biznesni rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlash orqali ham yoshlar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sharoit yaratdi. Bu innovatsiyalar, yangi texnologiyalar rivojiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga hissa qo‘shdi.

Xitoy va Hindiston tajribasi O‘zbekiston uchun yoshlar bandligini ta‘minlash va aholi o‘sishini boshqarish strategiyalarini ishlab chiqishda qimmatli bo‘lishi mumkin. Aholining o‘sishi va yoshlar bandligi bilan bog‘liq muammolarni samarali hal etish uchun ushbu mamlakatlarning muvaffaqiyatli amaliyotini o‘rganish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ahamiyatga ega.

Davlatimiz rahbari chet ellarga tashrif chog‘ida oliy darajadagi muloqotlar bilan kifoyalanmay, mamlakatimizga investitsiya kiritishi mumkin bo‘lgan yirik korporatsiya va kompaniyalar rahbarlari, tadbirkorlar bilan uchrashuvlar o‘tkazyapti. Buning boisi shundaki, xorijdan sarmoya jalb etish har qanday davlat iqtisodiy rivojlanishining muhim omilidir. Xorijiy tashriflar chog‘ida yirik korporatsiyalar, kompaniyalar rahbarlari va ishbilarmonlar bilan uchrashuvlar mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni jalb qilishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Bu uchrashuvlar qulay sarmoyaviy muhit yaratish, xorijdan yangi texnologiyalar, tajriba va kapital jalb etish, O‘zbekiston bilan boshqa davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishning o‘shisni rag‘batlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va innovatsion negizga ko‘chirish, shu orqali mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Qolaversa, bu yoshlarning o‘zlari uchun jozibali bo‘lgan yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlashning muhim omilidir.

Yangi avlod — kelajak egasi

MENTAL ARIFMETIKA — bolalarimizning tasavvur dvigateli

Hakim Yo‘ldoshev olgan suratlari.



Bugun ko‘cha-ko‘yda “Mental arifmetika o‘rgatamiz” deb yozilgan e‘lonlarga tez-tez ko‘zimiz tushadi. O‘zi mental arifmetika qanday fan, uning asosiy vazifasi nimadan iborat?

Mental arifmetikaning asosiy vazifasi shundan iboratki, aynan bu fan orqali bolalarda miyaning ikkala yarimshari ham ishlashiga erishish mumkin. Odatiy tarzda esa ularida faqatgina bir yarimshar ishlaydi.

Dastlab maktabimizda shu fanni o‘rgatuvchi to‘garak tashkil qilganimda ko‘pchilik bu haqda tasavvur yo‘qligi uchun ishonqiramay qaragan edi. Biroq kursimizda o‘qigan bolalardagi natijalarni ko‘rib, ularning ham qarashlari o‘zgardi.

Mental arifmetikaning asosiy maqsadi tasavvur imkoniyatlarini yanada oshirishdir. Bu tasavvur faqatgina matematiklar emas, balki adabiyot, fizika

hamda boshqa soha vakillari uchun ham birdek muhim. Sababi, barcha sohada yangilik qilish uchun, avvalo, tasavvur kerak.

Jahon tajribasida mental arifmetikaning imkoniyatidan yaxshi foydalangan davlatlardan biri Xitoydir. U yerda bolalarga juda kichik yoshidan mental arifmetika o‘rgatiladi. Natija ko‘pchilikka ma‘lum — bugungi Xitoy ilmiy ixtirolarning asosiy markazlaridan biri.

Bolalarga ta‘lim berishda men ham mental arifmetikaning Xitoy texnologiyasidan foydalanaman. Bu texnologiya boshqalariga qaraganda qulayligi hamda soddaligi bilan ajralib turadi. Aynan shu texnologiya asosida o‘qitgan



o‘quvchilarimiz bugungi kungacha respublikamiz, hatto Osiyo musobaqalarida ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda.

Dars jarayonlarida ko‘p guvoh bo‘laman: mental arifmetika o‘qigan hamda o‘qimagan bolalarning orasidagi tafovut yaqqol ko‘zga tashlanadi. Buni boshqa hamkasblarimiz ham e‘tirof etadi.

Istaymanki, farzandlarimizning tasavvur dunyosini

kengaytirish uchun ularga bolaligidan mazkur fanni o‘rgataylik. Zero, tasavvur va tafakkur dunyosi keng xalq orasidan haqiqiy olimlar, buyuk ixtirochilar ko‘p yetishib chiqadi.

Xurshid RAZZOQOV,
Toshkent shahri Sergeli tumanidagi
322-maktab o‘qituvchisi



9-fevral – Alisher Navoiy tavalludi kuni

“O‘qug‘anga muborak ayla oni...”



Abadiyatning bo‘yi qadamlar yoki yillar bilan o‘lchamaydi. Uning yukini ko‘taradigan tarozi ham bo‘lmasa kerak. Davrlar, tuzumlar o‘zgarayotgan, munosabatlar, ziddiyatlar to‘qnashayotgan chorrahada haqiqiy san‘at abadiyatga daxldorlik maqomini saqlab qolishi mumkin ekan. Hazrat Alisher Navoiydan meros adabiyot haqiqat adabiyoti, tafakkur adabiyoti, vijdon va imyon adabiyotidir. Uning asrlar sinoviga bardosh beradigan betakror asarlarida bugunning nafasi bor. Ona tilimizning ulkan jonkuyari, ulug‘ shoirning komillik ta‘limoti, hikmatlari ilmu urfon, hidoyat nuriga yo‘g‘rilib, ko‘nglimizni va yo‘llarimizni yoritib turibdi.

Milliy o‘zlik tuyg‘usini anglashga intilgan inson dunyo manzaralarini, hayotning past-balandini, tabiatning rang-barangligini, olam va odamning betakror mo‘jiza ekanini his qiladi. Ulug‘ shoir, buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiy asarlaridan bahramandlikni qalb ehtiyojiga aylantirgan inson Vatan va xalq tarixiga, taqdiriga hamda kelajagiga befarq bo‘lishi mumkin emas.

Hazrat Navoiy asarlari mohiyatini anglashga intilish ozod Vatan, ozod so‘z, erkin fikr, ezigu amal tushunchasini kengroq va chuqurroq his qilishga yordam beradi. Ulug‘ shoiridan meros bebaho milliy-ma‘naviy boylikning qadrini anglagan yoshlar ona xalqining milliy qadriyatlaridan, ko‘hna an‘analardan ajralishni istamaydi.

Alisher Navoiy o‘zbek tili jonkuyari va himoyachisi sifatida nihoyatda ulug‘ ishlarni amalga oshirgan. Uning ijodiyoti nainki Sharq mumtoz adabiyoti, balki jahon adabiyotida favqulodda muhim hodisa bo‘lib, bir-biridan a‘lo asarlarida mutafakkir shoimning til, tilning jamiyatda tutgan o‘rni, ahamiyati, shuningdek, nutq madaniyati, notqlik san‘ati, so‘zning qadri va qudrati, tilning ichki tabiati, insoniyatga ko‘rsatadigan ta’siri kabi hamma zamonlarda ham dolzarb bo‘lgan masalalar haqidagi qarashlari aks etgan. Xususan, “Mezon ul-avzon” va “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Hayrat ul-abror”, “Lison ut-tayr”, “Sab‘ai sayyor”, “Munshaot”, “Nazm ul-javohir”, “Xazoyin ul-maoniyy” kabi asarlarida shoimning so‘z ta’rifidagi fikrlari, ona tiliga munosabati yorqin namoyon bo‘lgan.

Zero, “So‘zga vasf shulkim, ularning qaysi biri so‘z avval, jahon esa so‘ngira paydo bo‘ldi, deyiladi. Birinchi sado so‘z ekan, har qanday qo‘shiqning ham boshlanishi so‘zdandir. So‘z aytib sovumaydigan qo‘shiqdir, so‘z jism bo‘stonida daraxtdir. Insonning jismi gulshan bo‘lsa, nutq undagi xushovoz bulbuldir. Bulbulning navosi so‘zdir. Jonga rohat beruvchi nag‘masi ham so‘zdir. Agar so‘z bo‘lmasa, bulbul navosiz, nutqsiz qolar edi. Bulbulni hech qachon navosiz ko‘rmang, benavolikni ham bulbulga ravu tutmang”.

Navoiy bobomizning so‘zi qariyb olti asrdan buyon qayta-qayta aytilsa-da, abadiyatga daxldor “sovumaydigan qo‘shiq” bo‘lgani uchun ham o‘z haroratini saqlab, bizning kunimizgacha yetib keldi. Hamon qalblarga mehr va ilqlik baxsh etmoqda. Ona tilimiz haqidagi yangi asarlar — yangi qo‘shiqslarning yaratilishiga poydevor bo‘lmoqda.

Til va tafakkurning uyg‘unligida, notqlik va mantiq, nutq madaniyati, nazm va nasrni, umuman, yozma adabiyotni badiiy tasvir etishda buyuk mutafakkir “so‘z”ining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Mashhur turkolog-sharqshunos olim M.IIlskiy fikricha, ulug‘



Ra‘no SAYFULLAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

shoir “ona tili uchun kurashda yagona va bahodir jangchi edi”. Navoiyning daho darajasidagi iste’dodi va salohiyati, turkiy til boyliklaridan san’atkorona foydalanish mahorati, ulug‘ vatanparvarligi, ayniqsa, “Xamsa”da yanada ulug‘vorlik kasb etadi. So‘zning ta’sir kuchi haqida “Hayrat ul-abror”ning XIV bobida bunday deydi: “So‘z jon bo‘lib, ruh uning qolipidir. Tanida ruhi bor odam doim unga ehtiyoj sezadi. So‘z dunyoda bor barcha ko‘ngillarning qutisidagi javhar, hammaning og‘iz qutisidagi qimmatbaho gavhardir. Agar til bamisoli bir po‘lat xanjar bo‘lsa, so‘z unga qadalgan injulardir. Til shu chamanning ochilgan lolasi bo‘lsa, so‘z durlari unga qo‘ngan shabnamlardir. So‘z o‘lgan odamning tanasiga pok ruh bag‘ishlaydi. So‘zdan tandagi tirik ruh halok bo‘lishi mumkin”.



Hakim Yo‘ldoshev olgan surat.

Darhaqiqat, so‘z ulus ko‘ngliga ko‘p narsadan, borliqning nihoyasizligi va abadiyligidan nishon beradi. Ezgu so‘z chegara bilmaydi. Shoir so‘z olov sochish qudratiga ham ega ekanini, bu olov odamlarning qalbiga tutashib, uning tuyg‘ularini alanga oldirishini ta’kidlaydi, o‘t sochayotib, kutilmaganda ko‘ngilga mung ham solishi mumkin. Aslida, so‘zning nafisligiyu maftunkorligidan, pokiza otashidan ruh yolg‘inlanadi, fikr murlanadi.

Alloma o‘zbek adabiy tilining asoschisi sifatida u shakllantirgan adabiy til jahoniy qadriyatlar qatorida turishini orzu qiladi. Asrlar davomida to‘plangan til boyliklari va qoidalari Hazrat Navoiyning ulug‘vor xizmatlari tufayli mumtoz adabiy til talablariga to‘liq javob beradigan yuksak taraqqiyot cho‘qqisiga ko‘tarildi.

Shoir ko‘ngli bilan so‘z ruhiyati o‘rtasida hech qanday to‘siq yo‘q. Uning betakror g‘azallaridan har kim tafakkuri va tuyg‘ulari doirasida ko‘ngliga yaqin sirdosh axtaradi. Shoir so‘zni o‘ziga do‘st deb biladi, u bilan nihoyatda uzoq sirlashadi. Uning qalamida so‘z

“Bu yuz lafz, so‘zdurki, qiziq, ajoyib, o‘ta nozik maqsadlar, niyatlar, hislar, muddaolarni bildirishda tayin belgili qilibdurlarki, bu so‘zlarning hech biri uchun sort tilida so‘z yasamaydilariki, barchasi Xudoning muhtoj qilganidurki, takallum (ma’noli so‘zlash) vaqtda kishi unga muhtoj bo‘lur. Ko‘plari shundaydiki, aslo u so‘zning mazmunin tushuntirib, anglatib bo‘lmas va ba’zisiniki anglatsa bo‘lgay, o‘shanda ham har bir so‘z tushunilishi uchun necha so‘zlarni qatorlashtirmaguncha bo‘lmas, yana ul so‘zni arabiy so‘zlar madadi, yordami bilan aytish, tushuntirish kerak”.

Tillarni qiyoslar ekan, buyuk mutafakkir har bir fikrini shunchaki gapirmaydi, balki asosli ravishda ilmiy jihatdan isbotlaydi. Tahlil va xulosalarga Hazrat Navoiyning qiyoslanayotgan tillarning tarixini ham mukammal bilishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Qiyoslash jarayonida tillarning biror xususiyati e’tibordan chetda qolmaydi:

“Turk so‘zlarida esa bunday so‘z ko‘p topilur. Masalan, yuqorida qayd etilgan yuz so‘zdan bir nechtasiga e’tibor qaratib, ular bilan shug‘ullanib, gapimizni isbot qilaylik, to dushman, raqib, qarshi kishilar yuzma-yuz kelganda uyalsinlarki, ilzom bo‘lsunki, o‘zgalarni bunga qiyos qilsin”.

Bugungi kunda ham jahon tilshunoslik ilmda shu aqidaga, ya’ni qiyosiy tahlilning haqqoniy bo‘lishiga amal qilinadi. Hazrat Navoiy nasriy va nazmiy asarlarida turkiy tilni ulug‘lash bilan kifoyalanmadi, balki turkiyzabon xalq vakillari bo‘lmish ilm va ijod ahlini turkiyda ijod qilishga da’vat etdi.

Hazrat Navoiy qalamiga mansub nazmiy, nasriy va ilmiy asarlarning ham badiiy, ham g‘oyaviy-ma’rifiy jihatdan yuksak saviyada bitilgani o‘zbek adabiy tili shakllanishi va bugungi mavqega erishishida muhim ahamiyat kasb etdi. U butun ijodi davomida turkiy tilni jahonning eng mukammal va mumtoz tillari darajasiga ko‘tarish uchun kurashdi. Turkiy tilning bitmas-tuganmas zarofati va latofatidan, ma’naviy manbalaridan foydalanish jarayonida bu tilda mukammal badiiy-ilmiy asarlar yaratish mumkin ekanini isbotladi.

“Lison ut-tayr” ishqiy-falsafiy dostoni jahon adabiyotida alohida e’tirof etiladigan asarlar qatoriga kiradi. Doston ulug‘ shoir umrining xotimasida, ilmiy-ijodiy faoliyati kamolotining yuksak cho‘qqilarini zabt etgan, she’riy san’atda ulkan tajriba ortirgan davrida yaratilgani bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, majoz vositalarining xilma-xil ko‘rinishlaridan g‘oyat ustalik bilan foydalanadi. Shoir dostonida ma’rifat vodiysining vasfini bayon etar ekan, uni bepoyon bir dashtga qiyoslaydi, bu dashtga kim qanday niyat bilan qadam qo‘ysa, shunga erishadi. Vodiya yuz minglab yo‘llar bor, har kim o‘ziga mos so‘qmoqni topishga harakat qiladi. Inson dunyoni bilish, ya’ni ma’rifatga erishish yo‘lida turli to‘siqlarga duch keladi, ziddiyatlarni yengib, taraqqiyotga intiladi. “Bilish” bosqichining dastlabki pillapoyalaridan o‘tgan, ta’limotlar o‘rtasidagi tafovutni anglagan insongina “tanish” va “idrok” maqomiga erishadi:

Bo‘ldi o‘z ifroni har kimga sifat,
Ko‘p tafovut qildi paydo ma’rifat.
Har kishi o‘z tavrida istab kamol,
Qildi vodiy tay qilug‘a ishtig‘ol.
Gar suluk atvorida tag‘yir edi,
Maqsadi lekin borining bir edi.

Ulug‘ shoimning yozishicha, ma’rifat quyoshi yuz ko‘rsatgach, har kim o‘z maqsadiga erishmoq uchun o‘z suluki holiga natija istaydi, ruhiyatiga uyg‘unlashib ketgan so‘z yolini hech qachon so‘nmaydi. Aksincha, eng qimmatbaho gavhar singari yangidan nur sochadi. Shoimning so‘z sehniri anglash va so‘z qo‘llash san’ati uning asarlari mohiyatini tadqiq qiluvchilar uchun katta mas’uliyat yuklaydi. Uning har bir asari turkiy so‘zning yuksak badiiyat cho‘qqisi timsolidir.

Atog‘li olim Natan Mallayev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “Navoiy ijodiyoti u yashagan muhitning badiiy qomusi, murakkab xalq tarixining ravshan ko‘zgusidir. Unda inson hayoti va faoliyatining rang-barang sohalarini o‘z ifodasini topgan. Binobarin, Navoiy merosi turli ilm sohalarini uchun boy va qimmatli manbadir”.

Buyuk mutafakkir so‘zni xabar, ma’no va tushuncha tashuvchi, inson ichki dunyosini, murakkab ruhiyatini ifoda etuvchi va o‘z o‘rnida boshqalarga ta’sir o‘tkazuvchi kuchli vosita deb biladi. Hazrat Navoiy har bir asarida turkiy tilning nozik ma’no qirralarini, ya’ni ham hikmatini, ham zinyatini kashf qiladi. Navoiy Hazratlari qo‘llagan har bir so‘z har o‘rinda betakror ma’no kasb etadi. Mutafakkir shoir nazdida insonning tili, ya’ni nutqi uning odobi, ichki madaniyati va tafakkurini namoyon qiluvchi asosiy vosita. U har bir shaxsning tiliga, uning tiliga munosabatiga, nutqining qay tarzda namoyon bo‘lishiga alohida e’tibor beradi. Shunday qarashlar tufayli zamonlar o‘tishi bilan nutq odobini, mulozot madaniyatini belgilovchi muayyan mezonlar vujudga kelgan. “Farhod va Shirin” dostonida ulug‘ shoir bunday deydi:

Demonim ko‘ngli poku ham ko‘zi pok,
Tili poku, so‘zi poku, o‘zi pok.
Dedi: har ishki qilinish odamizod,
Tafakkur birla bilimsh odamizod.

Shoir ijodiyotida so‘z mavzusi yuksak e’tibor va ehtirom, sharqona nazokat va e’zoz bilan qalamga olingan. Mir Alisher Navoiyning so‘z san’atkorini sifatidagi

Ehtirom

Navoiydan o‘rganinglar

Mahmud TOIR,
O‘zbekiston xalq shoiri

*Odamsodni odam qilgan —
So‘z bo‘ladi, so‘z taninglar,
So‘z tanishni, bolam, har vaqt,
Navoiydan o‘rganinglar.*

*Baytida ming ma’no nuri,
Dil dardiga shifo nuri,
Navoiyda Xudo nuri,
Navoiydan o‘rganinglar.*

*“Xamsa” — turkning dil dostoni,
Ona tilning mangu shoni,
O‘rganmoqning zo‘r imkoni,
Navoiydan o‘rganinglar.*

*U — hikmatlar bulog‘idir,
Zakovatning chirog‘idir,
Sadoqatning so‘rog‘idir,
Navoiydan o‘rganinglar.*

*Kimga yordir Haqning o‘zi,
U — millatning boqiy so‘zi,
Nazm ahlin nazmiy yuzi,
Navoiydan o‘rganinglar.*

*O‘qiganlar odam tanir,
Odam bilgan — olam tanir,
Uning lutfi guldek harir,
Navoiydan o‘rganinglar.*

*Dunyo omon-omon bo‘lsin,
Ahdlining azmiga to‘lsin.
Navoiy nazmiga to‘lsin,
Navoiydan o‘rganinglar.*

yuksak iste’dodi va salohiyati uning manguulikka daxldor o‘lmas asarlaridagi turkiy tilga va nutq madaniyatiga oid qarashlarida ham yorqin namoyon bo‘ldi hamda keyingi davr ijodkorlari uchun betakror maktab vazifasini o‘tadi. Bu asarlar, eng avvalo, so‘zga, turkiy til va nutq madaniyatiga hurmat va mehr-muhabbatning, chin insoniy e’tiqodning haqqoniy aks etishi bilan ibratlidir. Shoir ishonch bilan bunday deydi:

Deganimni ulusga marg‘ub et!
Yozg‘onimni ko‘ngulga mahbub et!
Xalqqa zebi torak ayla oni,
O‘qug‘anga muborak ayla oni.

So‘z ta’rifida ulug‘ shoir zakovati, tafakkuri va badiiy mahoratining yangi qirralari ochilib boradi. Xususan, g‘azal, ruboiy va dostonlarda qo‘llangan she’riy san’atlar yashirin, ko‘chma, ko‘p ma’noli so‘zlar hamda rang-barang uslubiy vositalar bilan uyg‘unlashib, kitobxon ongu shuorida mo‘jizalar yaratadi. So‘z mo‘jizasining nafis badiiyati, siru sinoatlari o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Mutafakkir shoir she’riy san’atdaga ham o‘ta mas’uliyat bilan yondashadi, o‘z fikrini bayon qilishda ayrim so‘z yoki birlikmalarga urg‘u berish orqali asarning badiiy ta’sirchanligini, emosionalligini kuchaytiradi, voqelikni kitobxonning xotirasida muhrilanib qoladigan darajada yuksak mahorat bilan ta’riflaydi.

Hazrat Navoiyning har bayti, misrasi sermazmun, olmosday jilolanib turadi, g‘azallar va dostonlarning zavqi, sururi ham bir jahon. Ularni qayta-qayta o‘qiganimiz sari ruhimiz poklanadi.

Ulug‘ shoir asarlarining asosiy g‘oyasi insonni e’zozlashga qaratilgani, har bir so‘zning ezigulikka xizmat qilishga chog‘lanishi umumbashariy qadriyatdir. U insonlarni barcha nuqsonlardan xoli, komillik saodatiga musharraf holda ko‘rishni orzu qiladi. Ko‘ngil pokligi komillikning eng yuksak maqomidir. Navoiy falsafasining ta’sirchan kuch-qudratida milliy ma’naviyatimizning o‘q ildizi — betakror qadriyatlar, hayotiy hikmatlar, saboqlar, sharqona o‘g‘itlar mujassam.

Mir Alisher Navoiy turkiy tilni ulug‘lash barobarida har bir so‘zga alohida mehr bilan qaraydi. Xususan, turkiy tildagi asarlarini buyuk muhabbat va mas’uliyat bilan yozdi. Ularda ona tilining ichki imkoniyatlari ochildi, oddiylikdan murakkablikka, murakkablikdan oddiylikka o‘tuvchi yangi yo‘llar, usullar kashf qilindi. Buyuk so‘z san’atkorining o‘z iborasi bilan aytganda:

“O‘qug‘anga muborak ayla oni...”

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalar tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatl chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 430.

9800 nusxada bosildi.
Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

O‘ZA yakuni — 00:41 Topshirildi — 01:35